BAHROM HIKMATOV

## O’ZBEKISTON TARIXI

**1.** Vazirlar Mahkamasining 1997-yildagi qarori bilan qaysi shaharda har ikki yilda bir marotaba “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali o’tkazilib kelinmoqda?
A) *Samarqand* B) *Buxoro*
C) *Qo’qon* D) *Xiva*

**2.** XX asr boshlarida Turkiston o’lkasida bolsheviklar (sovetlar)ga qarshi kurashgan istiqlolchilik harakati vakilini toping.
A) *Dukchi eshon* B) *Madaminbek*
C) *Mahmud Torobiy* D) *Jaloliddin Manguberdi*

**3.** 1917-yilda quyidagi qaysi shaharda bo’lib o’tgan Butunturkiston o’lka musulmonlarining favqulodda IV qurultoyida Turkiston Muxtoriyati tuzilganligi e’lon qilingan?
A) *Tashkent* B) *Buxoro*
C) *Samarqand* D) *Qo’qon*

**4.** O’rta Osiyo aholisining asosiy qismi VI-VII asrlarda qaysi dinga e’tiqod qilgan?
A) *nasroniylik* B) *moniylik*
C) *buddaviylik* D) *zardushtiylik*

**5.** 2016-yilda Rio-de-Janeyroda o’tkazilgan Olimpiada o’yinlarining oltin medaliga sazovor bo’lgan vatandoshimizni aniqlang.
A) *Murodjon Ahmadaliyev* B) *Iroda Todaganova*
C) *Ruslan Nariddinov* D) *Yekaterina Xilko*

**6.** Qachon birinchi marta yashirin ovoz berish yo’li bilan o’tkazilgan to’g’ridan-to’g’ri umumiy va muqobil asosdagi prezidentlik saylovida Islom Karimov 5 yil muddatga O’zbekiston Respublikasining Prezidenti etib saylangan?
A) *1990-yil 24-martda* B) *1994-yil 24-martda*
C) *1991-yil 29-dekabrda* D) *1992-yil 4-yanvarda*

**7.** 1906-yilda kimning muharrirligida ilk bor “Taraqqiy” nomli o’zbek milliy gazetasi nashr etilgan?
A) *Ismoil Obidov* B) *Ahmadjon Bektemirov*
C) *Abdulla Avloniy* D) *Munavvarqori*

**8.** Quyidagi qaysi hukmdor davridan boshlab Shayboniylar davlati Buxoro xonligi deb atala boshlandi?
A) *Abdullaxon II* B) *Ubaydullaxon*
C) *Ko’chkunchixon* D) *Muhammad Shayboniyxon*

**9.** Qaysi daryo qadimda Politimet deb atalgan?
A) *Amudaryo* B) *Qashqadaryo*
C) *Zarafshon* D) *Sirdaryo*

**10.** Turkiston jadidlarini birlashtirishda “O’rta Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan jadid namoyandasini belgilang.
A) *Munavvarqori Abdurashidxonov*
B) *Mahmudxo’ja Behbudiy*
C) *Abdulla Avloniy*
D) *Abdurauf Fitrat*

**11.** O’rta Osiyoning forslar bosib olgan viloyatlari nechta satraplikka bo’lingan?
A) *4 ta* B) *2 ta* C) *5 ta* D) *3 ta*

**12.** XIX asr o’rtalarida Buxoro amirligi, Xiva va Qo’qon xonliklarida vaqf yerlaridan olinadigan foydaning hisob-kitobi va taqsimoti bilan qaysi lavozim egasi shug’ullangan?
A) *shayxulislom* B) *mutavalli*
C) *mehtar* D) *mushrif*

**13.** Mo’g’ullarga qarshi kurashda halok bo’lgan allomani toping.
A) *Najmiddin Kubro* B) *Bahouddin Naqshband*
C) *Abu Rayhom Bernniy* D) *Ahmad Yassaviy*

**14.** Quyidagilardan 1865-yilda tashkil etilgan Orenburg general-gubernatorligi tarkibidagi Turkiston viloyati gubernatori bodgan shaxsni toping.
A) *M.Chernyayev* B) *K.P. fon Kaufman*
C) *V.Perovskiy* D) *M.Skobelev*

**15.** Quyidagi qaysi mahalliy hokimlik hukmdorlari dastlab, “malikshoh”, keyinchalik “yabg’u” nomi bilan atalgan?
A) *Sug’d* B) *Farg’ona*
C) *Eloq* D) *Tohariston*

**16.** Nechanchi yilda xalqaro UNESCO tashkilotining tashabbusi bilan Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlangan?
A) *1993-yilda* B) *1996-yilda*
C) *1994-yilda* D) *1995-yilda*

**17.** Xiva xonligiga qaysi sulola asos solgan?
A) *shayboniylar* B) *minglar*
C) *mang’itlar* D) *qo’ng’irotlar*

**18.** Qaysi daryo qadimda Yaksart deb atalgan?
A) *Amudaryo* B) *Qashqadaryo*
C) *Zarafshon* D) *Sirdaryo*

**19.** Nechanchi yilda RSFSR tarkibida Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi (TASSR) tuzilganligi e’lon qilingan?
A) *1924-yilda* B) *1941-yilda*
C) *1935-yilda* D) *1918-yilda*

**20.** Makedoniyalik Aleksandr va Salavkiylar bosqini davrida o’z mustaqilligini saqlab qolgan davlat (hudud)ni toping.
A) *Xorazm* B) *Baqtriya*
C) *So’g’diyona* D) *Marg’iyona*

**21.** Arab xalifaligiga qarshi ko’tarilgan “Oq kiyimlilar” qo’zg’oloniga rahbarlik qilgan shaxsni toping.
A) *Abu Muslim* B) *Hoshim ibn Hakim*
C) *Mahmud Torobiy* D) *Rofe ibn Lays*

**22.** 1740-yilda Xiva va Buxoro xonligini bosib olgan Eron shohini toping.
A) *Ismoil Safaviy* B) *Taxmasp II*
C) *Abbos I* D) *Nodirshoh*

**23.** Nechanchi yilda Toshkentda Turkiston muzeyi (hozirgi O’zbekiston tarixi davlat muzeyi) tashkil etilgan?
A) *1870-yil* B) *1876-yil*
C) *1867-yil* D) *1895-yil*

**24.** XIX asr o’rtalarida Xiva xonligida asosiy soliq turi qanday nomlangan?
A) *tanobona* B) *zakot*
C) *salg’ut* D) *ushr*

**25.** Sharqda Arastadan (Aristotel) keyingi yirik mutafakkir — “Muallim us-soniy” nomi bilan shuhrat topgan allomani toping.
A) *Abu Rayhon Beruniy* B) *Abu Nasr Forobiy*
C) *Ahmad al-Farg’oniy* D) *Abu Ali ibn Sino*

**26.** O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining nechanchi moddasida hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlangan?
A) *31-moddasida* B) *93-moddasida*
C) *15-moddasida* D) *76-moddasida*

**27.** 2000-yildan boshlab yurtimizda o’rta maxsus kasb-hunar tadimi muassasalari o’quvchilari odtasida har 3 yilda o’tkazila boslilagan sport musobaqalari qanday nomlangan?
A) *“Istiqlol yulduzlari”* B) *“Umid nihollari”*
C) *“Barkamol avlod”* D) *“Universiada”*

**28.** Turkiston Muxtoriyati nechanchi yilda tashkil topgan?
A) *1916-yilda* B) *1919-yilda*
C) *1920-yilda* D) *1917-yilda*

**29.** Rossiyada yuz bergan fevral burjua inqilobidan keyin Toshkent shahrida Turkiston taraqqiyparvarlari tomonidan tuzilgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotni toping. (1917-yil 14-mart)
A) *“Taraqqiy”* B) *“Ittifoqi muslimin”*
C) *“Sho’roi Islomiya”* D) *“Kengash”*

**30.** Mil.avv. VII-VI asrlarda Zarafshon va Qashqadaryo vohasida dehqonchilik bilan shug’ullanuvchi ko’plab aholi istiqomat qilgan. Yunon yozma manbalarida bu hudud nima deb nomlangan?
A) *Davan* B) *So’g’diyona*
C) *Xorasmiya* D) *Baqtriana*

**31.** XIX asr boshida qaysi hukmdorning hukmronligi davrida Qo’qon adabiy muhiti shakllangan?
A) *Sheralixon* B) *Erdonabiy*
C) *Xudoyorxon* D) *Umarxon*

**32.** “Avesto” qaysi dinning muqaddas kitobi hisoblanadi?
A) *nasroniylik* B) *buddaviylik*
C) *zardushtiylik* D) *moniylik*

**33.** Nechanchi yilda Toshkentda Xotira va Qadrlash maydoni barpo etilgan?
A) *2000-yil* B) *2001-yil*
C) *1995-yil* D) *1999-yil*

**34.** Nechanchi yilda Zahiriddin Muhammad Bobur Farg’ona taxtiga o’tiradi?
A) *1483-yilda* B) *1504-yilda*
C) *1526-yilda* D) *1494-yilda*

**35.** Qaysi Buxoro amirini xalq hurmat bilan “amiri ma’sum” (begunoh amir) deb atagan?
A) *Shohmurod* B) *Muhammad Rahim*
C) *Doniyolbiy otaliq* D) *Haydar*

**36.** O’rta Osiyo hududlarini bosib olishga harakat qilgan dastlabki fors podshosini toping.
A) *Kir II* B) *Kambiz II*
C) *Doro I* D) *Doro III*

**37.** Nechanchi yilda arab imlosi asosidagi o’zbek yozuvi tugatilib, undan lotin grafikasiga o’tilgan?
A) *1936-yilda* B) *1940-yilda*
C) *1929-yilda* D) *1917-yilda*

**38.** O’zbekiston SSR poytaxti bo’lgan shaharni toping.
A) *Buxoro* B) *Jizzax*
C) *Xiva* D) *Qo’qon*

**39.** Quyidagi qaysi alloma o’zining astronomiyaga oid asarlarida Kopernikdan qariyb besh asr muqaddam Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqidagi fikrni birinchi bo’lib ilgari surgan? (o’rta asrlarda)
A) *Abu Nasr Forobiy* B) *Abu Rayhon Beruniy*
C) *Abu All ibn Sino* D) *Ahmad al-Farg’oniy*

**40.** Farg’ona hukmdorlari ilk o’rta asrlarda qanday nomlangan?
A) *Yabg’u* B) *Xoqon*
C) *Sho(shoh)* D) *Ixshid*

**41.** 1865-yilda Rossiya imperiyasi qo’shinlari tomonidan qaysi shahar bosib olingan?
A) *Samarqand* B) *Toshkent*
C) *Xiva* D) *Qo’qon*

**42.** XIX asrning ikkinchi yarmida Toshkent shahrining nechta darvozasi bo’lgan?
A) *9 ta* B) *14 ta* C) *6 ta* D) *12 ta*

**43.** 2000-yildan boshlab yurtimizda oliy o’quv yurtlari talabalari o’rtasida o’rtasida har 3 yilda o’tkazila boshlagan sport musobaqalari qanday nomlangan?
A) *“Istiqlol yulduzlari”* B) *“Umid nihollari”*
C) *“Barkamol avlod”* D) *“Universiada”*

**44.** Quyidagi lavozimlardan qaysi biri Buxoro amirligida bosh vazir hisoblangan?
A) *otaliq* B) *qo’shbegi*
C) *devonbegi* D) *mehtar*

**45.** Qaysi daryo qadimda Oks deb atalgan?
A) *Amudaryo* B) *Sirdaryo*
C) *Qashqadaryo* D) *Zarafshon*

**46.** Nechanchi yilda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e’lon qilingan?
A) *1917-yilda* B) *1935-yilda*
C) *1945-yilda* D) *1920-yilda*

**47.** Nechanchi yilda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e’lon qilingan?
A) *1917-yilda* B) *1945-yilda*
C) *1920-yilda* D) *1935-yilda*

**48.** Buxoroda qaysi sulolaning boshqaruvi davrida davlat Buxoro amirliği deb atala boshlagan?
A) *shayboniylar* B) *ashtarxoniylar*
C) *mang’itlar* D) *qo’ng’irotlar*

**49.** Qaysi shaharda Chingizxon karvonining talanishi Xorazmshohlar va Mo’g’ullar davlati o’rtasida urush boshlanishiga bahona bo’lgan?
A) *Balx* B) *Samarqand*
C) *O’tror* D) *Buxoro*

**50.** Mo’g’ullarga qarshi kurash olib borgan Temur Malik quyidagi qaysi shahar hokimi edi?
A) *Xo’jand* B) *Samarqand*
C) *O’tror* D) *Buxoro*

BAHROM HIKMATOV

**51.** Qaysi sulola hukmronligi davrida, Xorazmda “Dorul-hikma va maorif” (Bilimdonlik va maorif uyi) tashkil etilgan?
A) *Ma’muniylar* B) *Afrig’iylar*
C) *Anushteginiylar* D) *Shayboniylar*

**52.** Xiva shahri nechanchi asrdan Shayboniylar asos solgan Xorazm (Xiva xonligi) davlatining poytaxtiga aylantirilgan?
A) *XVI asrdan* B) *XIX asrdan*
C) *XVIII asrdan* D) *XVII asrdan*

**53.** O’zbekiston SSR poytaxti bo’lgan shaharni toping.
A) *Xiva* B) *Jizzax*
C) *Toshkent* D) *Qo’qon*

**54.** O’zbek adabiyotida poeziyaga masalni birinchi bo’lib mustaqil janr sifatida kiritgan ijodkorni toping.
A) *Maxmur* B) *Turdi Farogdy*
C) *Gulxaniy* D) *Muqimiy*

**55.** VIII asr boshlarida arablarning Movarounnahrga harbiy yurishlariga boshchilik qilgan shaxsni toping.
A) *Rofe ibn Lays* B) *Qutayba ibn Muslim*
C) *Muoviya I* D) *Ubaydulloh ibn Ziyod*

**56.** Qo’qon xonligida qaysi sulola hukmronlik qilgan?
A) *shayboniylar* B) *qo’ng’irotlar*
C) *ashtarxoniylar* D) *minglar*

**57.** Qaysi shaharda Mahmudxo’ja Behbudiy rahbarligida Turkistonda birinchi o’zbek milliy teatri tashkil etilgan?
A) *Buxoro* B) *Tashkent*
C) *Qo’qon* D) *Samarqand*

**58.** O’zbekiston SSR poytaxti bo’lgan shaharni toping.
A) *Qo’qon* B) *Jizzax*
C) *Samarqand* D) *Xiva*

**59.** 1920-yilda tugatilgan davlatni toping.
A) *O’zbekiston SSR*
B) *Turkistan Avtonam Sovet Sotsialistik Respublikasi*
C) *Turkistan Muxtariyati*
D) *Buxaro amirligi*

**60.** Rus podshosi Ivan IV bilan elchilik aloqalarini o‘rnatgan Buxoro xonini aniqlang.
A) *Abdullaxon II* B) *Imomqulixon*
C) *Ubaydullaxon* D) *Ko’chkunchixon*

**61.** Qachondan boshlab mamlakatimiz tarixida ilk bor O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat tarzda faoliyat olib bora boshladi?
A) *2001-yildan* B) *2005-yildan*
C) *2004-yildan* D) *2002-yildan*

**62.** Ilk o’rta asrlarda qishloqning dehqonlarga qaram aholisi nima deb atalgan?
A) *kadivar* B) *ixshid*
C) *mardikar* D) *yabg’u*

**63.** III asr o’rtalarida Xorazm davlatining poytaxti quyidagi qaysi shahar xarobasining o’rnida bo’lgan?
A) *Afrosiyob* B) *Quva*
C) *Tuproqqal’a* D) *Varaxsha*

**64.** 1892-yilda tarixda “Vabo isyoni” (yoki “Toshotar” voqeasi) deb nom olgan qo’zg’olon qayerda bodib o’tgan?
A) *Qo’qonda* B) *Toshkentda*
C) *Buxoroda* D) *Andijonda*

**65.** Shayboniylar davrida davlat muassasalari qo’shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to’lanadigan soliq nima deb atalgan?
A) *xiroj* B) *zakot*
C) *ixrojot* D) *jizya*

**66.** Ikkinchi jahon urushi yillarida O’zbekistonning qaysi shahrida metallurgiya zavodi bunyod etilgan?
A) *Bekobod* B) *Qo’qon*
C) *Buxoro* D) *Navoiy*

**67.** Arablarning Movarounnahrga dastlabki harbiy yurishlari nechanchi asrda boshlangan?
A) *IX asrda* B) *VIII asrda*
C) *VII asrda* D) *VI asrda*

**68.** Qachondan boshlab O’zbekiston Respublikasi hududida yagona, cheklanmagan va qonuniy to’lov vositasi sifatida milliy valyuta - so’m muomalaga kritilgan?
A) *1994-yil 1-yanvardan* B) *1993-yil 1-noyabrdan*
C) *1992-yil 1-iyundan* D) *1994-yil 1-iyuldan*

**69.** 1920-yilda tugatilgan davlatni toping.
A) *Turkiston Muxtoriyati*
B) *Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi*
C) *O’zbekiston SSR*
D) *Xiva xonligi*

**70.** X asrda musulmon sharqidagi ilk ilmgoh – Farjak madrasasi qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) *Chock* B) *Xiva*
C) *Samarqand* D) *Buxoro*

**71.** Qaysi hukmdor davrida Xivada “xon navkarlari” deb atalgan muntazam qo’shin tuzilgan?
A) *Muhammad Amin inoq* B) *Eltuzar*
C) *Olloqulixon* D) *Muhammad Rahimxon I*

**72.** O’rta Osiyoga bostirib kirgan yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashga kim boshchilik qilgan?
A) *Frada* B) *Spitaman*
C) *Shiroq* D) *To’maris*

**73.** Nechanchi yilda “O’zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tashkil etisli to’g’risidagi Deklaratsiya” qabul qilingan?
A) *1930-yilda* B) *1935-yilda* C) *1918-yilda*
D) *1925-yilda*

**74.** Nechanchi yilda Xalqaro UNESCO tashkiloti homiyligida Toshkent, Samarqand shaharlarida va xorijiy mamlakatlarda Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi keng miqyosda nishonlangan?
A) *1997-yilda* B) *2000-yilda*
C) *2001-yilda* D) *1999-yilda*

**75.** 1017-yilda Xorazmni bosib olgan g’aznaviy hukmdorni toping.
A) *Alptegin* B) *Ma’sud G’aznaviy*
C) *Mahmud G’aznaviy* D) *Sobuqtegin*

BAHROM HIKMATOV

**76.** Qaysi vatandoshimiz tavalludining 800 yillik yubileyi 1999-yilda nishonlangan?
A) *Alisher Navoiy* B) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
C) *Amir Temur* D) *Jaloliddin Manguberdi*

**77.** "Shajarayi turk" asari muallifini toping.
A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
B) *Muhammad Shayboniyxon*
C) *Muhammad Solih*
D) *Abulg'oziyxon*

**78.** Amir Temur davlatining poytaxti bo'lgan shaharni toping.
A) *Kesh* B) *Buxoro*
C) *Samarqand* D) *Shosh*

**79.** XIV asrda Chig'atoy xonlaridan kim birinchi bo'lib o'z qarorgohini Movarounnahrga ko'chirgan?
A) *Abulxayrxon* B) *Munke*
C) *Tug'luq Temur* D) *Kebek*

**80.** O'zbekiston hududidagi qaysi manzilgohda ilk shahar alomatlari ko'zga tashlanadi?
A) *Obishir* B) *Jarqo'ton*
C) *Selengur* D) *Ko'lbuloq*

**81.** Toshkent shahri kim boshchiligidagi podsho Rossiyasi qo'shinlari tomonidan egallangan? (1865-yil)
A) *fon Kaufman* B) *M.Skobelov*
C) *F.Romanovskiy* D) *M.Chernyayev*

**82.** Rossiya imperiyasi tarkibidagi Turkiston general-gubernatorligi nechanchi yilda tashkil etilgan?
A) *1875-yilda* B) *1867-yilda*
C) *1856-yilda* D) *1881-yilda*

**83.** Sovetlar boshqaruvi davrida o'zbek xotin-qizlarini ozodlikka chiqarish jarayoni qanday nom ostida o'tkazilgan?
A) *"Kolxozchilar" harakati*
B) *"Bosmachilik" harakati*
C) *"Ozodlik" harakati*
D) *"Hujum" harakati*

**84.** 1993-yilda O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan?
A) *ShHT* B) *YuNESKO* C) *MDH* D) *BMT*

**85.** O'zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyat hisoblanadigan organni toping.
A) *Oliy Sud* B) *Oliy Majlis*
C) *Vazirlar Mahkamasi* D) *Konstitutsiyaviy sud*

**86.** O'zbekistonda 2000-yil 30-avgustda ta'sis etilgan ordenni toping.
A) *"Jaloliddin Manguberdi"* B) *"Amir Temur"*
C) *"Alisher Navoiy"* D) *"Mustaqillik"*

**87.** Qoraxoniylar davlatida viloyatlarni kimlar boshqargan?
A) *eloqxonlar* B) *kutvol*
C) *arslonxon* D) *amid*

**88.** "Fozil odamlar shahri" asari muallifini toping.
A) *Ahmad al-Farg'oniy*
B) *Abu Nasr Farobiy*
C) *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*
D) *Abu Ali ibn Sino*

**89.** 2007-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2000 yillik yubileyi nishonlangan?
A) *Termiz* B) *Qarshi*
C) *Marg'ilon* D) *Toshkent*

**90.** Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida yashovchi shayx Muhammad Islom ko'magida Buxoro taxtini egallagan shaxsni toping. (XVI asr)
A) *Abulfayzxon* B) *Abdullaxon II*
C) *Abulg'oziyxon* D) *Amir Nasrullo*

**91.** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakilining qarolgohi qaysi shaharda joylashgan edi?
A) *Kattaqo'rg'on* B) *Buxoro*
C) *Kogon* D) *Samarqand*

**92.** II jahon urushi yillarida vatandoshimiz Zebo G'aniyeva qaysi shaharni himoya qilishda ko'rsatgan mardligi va jasorati uchun "Qizil Bayroq" ordeni bilan mukofotlangan?
A) *Stalingrad* B) *Smolensk*
C) *Moskva* D) *Leningrad*

**93.** Qadimda O'rta Osiyoda mavjud bo'lgan qaysi dinda inson vafot etganda marhumning jasadini yerga ko'mish, olovda kuydirish, suvga tashlab yuborish taqiqlangan?
A) *qam* B) *buddaviylik*
C) *zardushtiylik* D) *moniylik*

**94.** Quyida sanab o'tilgan shaxslaldan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazilasida **faoliyat yuritmagan?**
A) *Amin Niyozov* B) *Nuriddin Muhitdinov*
C) *Mahmudxo'ja Behbudiy* D) *Sobir Kamolov*

**95.** "Afrosiyob qo'rg'oni" asarining muallifini aniqlang.
A) *V.Vyatkin* B) *N. Vasilevskiy*
C) *A.Jenkinson* D) *X.Vamberi*

**96.** Ilk o'rta asrlarda Xorazmni boshqargan sulolani belgilang. (IV-X asrlar)
A) *Temuriylar* B) *Anushteginiylar*
C) *Saljuqiylar* D) *Afrig'iylar*

**97.** Quyidagi hukmdorlardan qaysi biri Nodirshoh bilan Buxoro xonligining Eronga taslim bo'lish shartlari haqidagi shartnomani imzolagan?
A) *Subhonqulixon* B) *Abulfayzxon*
C) *Imomqulixon* D) *Ubaydullaxon*

**98.** XIX asrda qaysi shahar bir-biridan devor bilan ajralib turuvchi ikki qismga - Ichan qal'a va Dishan qal'aga bo'lingan?
A) *Hazorasp* B) *Ellikqal'a*
C) *Yangi Urganch* D) *Xiva*

**99.** Qaysi davlatda mahkama xizmatchilari arab, fors tillarini puxta egallagan, Qur'onni va shariatning asosiy qoidalarini yaxshi biladigan, turli fanlardan xabardor bo'lgan savodli aslzodalardan tanlab olingan?
A) *Qarluqlar davlatida* B) *Somoniylar davlatida*
C) *O'g'uzlar davlatida* D) *Turk xoqonligida*

**100.** Qo'qon xonligi o'rnida Turkiston genelal-gubernatorligi tarkibiga kiruvchi qaysi viloyat tashkil qilingan?
A) *Farg'ona* B) *Andijon*
C) *Toshkent* D) *Sirdaryo*

BAHROM HIKMATOV

**101.** Amir Temur 1398-1399-yillarda qaysi hududga harbiy yurish qilgan?
A) *Hindistonga* B) *Rossiyaga*
C) *Xitoyga* D) *Oltin O'rdaga*

**102.** Qaysi hukmdor davrida Xitoy hukumati Qo'qonning Sharqiy Turkistonda yuritadigan savdo ishlarini taqiqlagan?
A) *Norbo'tabiy* B) *Abdurahimbiy*
C) *Muhammad Alixon* D) *Umarxon*

**103.** O'rta Osiyoda vujudga kelgan qaysi ta'limot(tariqat) taraqqiyotiga keyingi asrlarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xo'ja Ahror kabi buyuk allomalar katta hissa qo'shdilar?
A) *Kubroviya* B) *Naqshbandiya*
C) *Moturidiya* D) *Yassaviya*

**104.** 1936-yil qaysi shaharda o'zbek musiqa va vokal san'atining rivojlanishida muhim rol o'ynagan davlat konservatoriyasi ochilgan?
A) *Buxoroda* B) *Xivada*
C) *Farg'onada* D) *Toshkentda*

**105.** Qaysi Xiva xoni Rossiya imperiyasi bilan Gandimiyon shartnomasini imzolagan?
A) *Said Abdulla* B) *Asfandiyorxon*
C) *Muhammad Rahimxon I* D) *Muhammad Rahimxon II*

**106.** 2002-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2500 yillik yubileyi keng nishonlangan?
A) *Marg'ilon* B) *Termiz*
C) *Qarshi* D) *Xiva*

**107.** Mir Arab madrasasi qaysi sulola hukmronligi davrida barpo etilgan?
A) *shayboniylar* B) *mang'itlar*
C) *minglar* D) *ashtarxoniylar*

**108.** Mil. avv. 1 ming yillikda O'rta Osiyoda qaysi din keng tarqalgan?
A) *islom* B) *zardushtiylik*
C) *nasroniylik* D) *moniylik*

**109.** Zaiflashib borayotgan Qang' davlatidan birinchi bo'lib ajralib chiqqan hududni toping.
A) *Eloq* B) *Xorazm*
C) *Farg'ona* D) *Choch*

**110.** XVII asrda Xivaning qaysi hukmdori davrida parokandalik yuqori nuqtaga yetgan?
A) *Arab Muhammadxon* B) *Eltuzarxon*
C) *Muhammad Aminxon* D) *Sherg'ozixon*

**111.** Mustaqillik yillarida quyidagi qaysi vatandoshimizning 600 yillik yubileyi nishonlangan?
A) *Ahmad al-Farg'oniy* B) *Xoja Ahror Valiy*
C) *Imom Abu Iso at-Termiziy* D) *Najmiddin Kubro*

**112.** "Movarounnahr" atamasining ma'nosi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
A) *"qirg'oq bo'yida yashovchilar"*
B) *"daryoning narigi tomoni"*
C) *"bo'ysunish, itoat etish"*
D) *"erzgu amallar haqida xabar beruvchi"*

**113.** Quyidagilardan qaysi biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?
A) *Buxoro amirligi* B) *Turkiston ASSR*
C) *Qo'qon xonligi* D) *Xiva xonligi*

**114.** 1896-yil qaysi shaharda birinchi gimnaziva ochilib unda zamonaviy fanlar va kundalik turmushda zarur bo'ladigan bilimlar o'qitilgan?
A) *Toshkentda* B) *Buxoroda*
C) *Nukusda* D) *Samarqandda*

**115.** XIX asr oxirida Turkiston o'lkasida jadidchilik g'oyalarining keng yoyilishida qaysi gazeta muhim o'rin tutgan?
A) *"Taraqqiy"* B) *"Xurshid"*
C) *"Uchqun"* D) *"Tarjimon"*

**116.** Chig'atoy Movarounnahrni bevosita idora etish ishlarini kimga bergan edi?
A) *Shamsiddin Mahbubiyga* B) *Mahmud Yalavochga*
C) *Mahmud Torobiyga* D) *Rofe ibn Laysga*

**117.** Misdan yasalgan mehnat qurollarining tosh qurollar bilan bilgalikda ishlatilish davri nima deb ataladi?
A) *neolit* B) *eneolit*
C) *mezolit* D) *bronza*

**118.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-iyundagi qarori asosida qaysi shaharda Islom madaniyati markazi tashkil etildi?
A) *Buxoroda* B) *Samarqandda*
C) *Qo'qonda* D) *Toshkentda*

**119.** Chig'atoy ulusiga Movarounnahrdan tashqari yana qaysi hududlar kirgan?
A) *Xorazm va Xuroson*
B) *Xuroson va Mozandaron*
C) *Yettisuv va Sharqiy Turkiston*
D) *Eron va Iroq*

**120.** Qadimda Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan qadimiy turkiy qabilani toping.
A) *toxarlar* B) *o'g'uzlar*
C) *qarluqlar* D) *qoraxitoylar*

**121.** Qoraqalpoqlarning XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida barpo etilgan shahrini aniqlang.
A) *Taxta* B) *Chimboy*
C) *Mo'ynoq* D) *Xonqa*

**122.** 1990-yilda kim boshchiligida O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzilgan?
A) *Saloy Madaminov* B) *Inomjon Usmonxo'jayev*
C) *Islom Karimov* D) *Rafiq Nishonov*

**123.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqoli palatasi qanday ataladi?
A) *Prezident apparati* B) *Oliy Kengash*
C) *Qonunchilik palatasi* D) *Senat*

**124.** Mil. avv. VII-IV asrlarda O'rta Osiyo jangchilarining quroli jangovar oybolta... deb atalgan.
A) *bargustvon* B) *ossuariy*
C) *akinak* D) *sagaris*

**125.** 1336-1405-yillarda yashagan tarixiy shaxsni aniqlang.
A) *Amir Temur*
B) *Mirzo Ulug'bek*
C) *Alisher Navoiy*
D) *Zahiriddin Muhammad Bobur*

BAHROM HIKMATOV

**126.** 1428-yil "O'zbek ulusi" deb atalgan davlatga asos solgan shaxsni aniqlang.
A) *Davlatshayx* B) *Muhammad Shayboniyxon*
C) *Abu Said* D) *Abulxayrxon*

**127.** O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan shaharni toping. (1925-1930-yillar.)
A) *Samarqand* B) *Qo'qon*
C) *Xiva* D) *Jizzax*

**128.** Shayboniy Asfandiyorxon 1623-yil kimning yordamida Xiva xonligi taxtini egallagan?
A) *Buxoro xoni Imomqulixon*
B) *Eron shohi Abbos I*
C) *Qo'qon xoni Erdonabiy*
D) *Afg'oniston hukmdori Mahmud*

**129.** IIk o'rta asrlarda Choch hukmdorlari nima deb atalgan?
A) *xon* B) *tudun*
C) *ixshid* D) *amir*

**130.** Mil. avv. VII-IV asrlarda O'rta Osiyo jangchilarining quroli – xanjar ... deb atalgan.
A) *bargustvon* B) *ossuariy*
C) *akinak* D) *sagaris*

**131.** Tosh asriga mansub 8-9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari qaysi manzilgohdan topib o'rganilgan?
A) *Teshiktosh* B) *Machay*
C) *Selungur* D) *Ko'lbuloq*

**132.** Turk xoqonligi davrida O'rta Osiyoda ko'tarilgan qo'zg'olonni toping.
A) *Rofe ibn Lays boshchiligidagi qo'zg'olon*
B) *Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olon*
C) *"Oq kiyimlilar" qo'zg'oloni*
D) *Abruy boshchiligidagi qo'zg'olon*

**133.** O'zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.
A) *O'zbekiston "Adolat" sotsial demokatik partiyasi*
B) *O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demoktatik partjyasi*
C) *O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*
D) *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi*

**134.** Quyidagi asarlardan qaysi biri Mahmud Qoshg'ariyning qalamiga mansub?
A) *"Qutadg'u bilig"* B) *"Devonu lug'otit turk"*
C) *"Hibat ul-haqoyiq"* D) *"Hikmat"*

**135.** 755-yilda quyidagi qaysi shaxsning o'ldirilishi xalifalik sharqida, ayniqsa, Xuroson va Movarounnahrda abbosiylarga qarshi xalq harakatlarining avj olib ketishiga bahona bo'lgan?
A) *Abu Muslimning* B) *Temur Malikning*
C) *Mahmud Torobiyning* D) *Sitamanning*

**136.** XVI asrda Buxoro-Eron manfaatlari to'qnashgan hududni belgilang.
A) *Astraxan* B) *Dashti Qipchoq*
C) *Farg'ona vodiysi* D) *Xuroson*

**137.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri Turkiston general-gubernatori sifatida faoliyat **yuritmagan**?
A) *S.M.Duxovskoy* B) *A.Vrevskiy*
C) *P.Lessar* D) *K.P.Kaufman*

**138.** Quyidagilardan qavsi biri 1925-yilda qabul qilingan?
A) *"Buxoro SSR ni tuzish to'g'risidagi Deklaratsiya"*
B) *"Mustaqillik" Deklaratsiyasi"*
C) *"O'zbekiston SSR ni tashkil etish to'g'risida Deklaratsiya"*
D) *"Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi"*

**139.** 1533-yil Buxoro xonligining poytaxti etib belgilangan shaharni aniqlang.
A) *Buxoro* B) *Qarshi*
C) *Samarqand* D) *Shahrisabz*

**140.** Buxoro xonligida (shayboniylar davrida) qaysi lavozim egasi Bosh vazir hisoblangan?
A) *parvonachi* B) *otaliq*
C) *devonbegi* D) *naqib*

**141.** G'arbiy Turk xoqonligiga Yettisuv va Sharqiy Turkistondan tashqari yana qaysi hududlar kirgan?
A) *Irtish daryosi havzasi*
B) *G'arbiy Sibir*
C) *Sirdaryo va Amudaryo havzalari*
D) *Shimoliy Xitoy*

**142.** Xiva xonligida xususiy yerlarni ijaraga oluvchilar qanday atalgan?
A) *koranda* B) *bevatan*
C) *barzikor* D) *vaqfchi*

**143.** Mustaqillik yillarida quyidagi qaysi vatandoshimizning 1200 yillik yubileyi nishonlangan?
A) *Xoja Ahror Valiy*
B) *Mahmud az-Zamaxshariy*
C) *Najmiddin Kubro*
D) *Imom Abu Iso at-Termiziy*

**144.** Ubaydulloh ibn Ziyod qaysi xalifaning farmoni bilan 673-yilning kuzida Amudaryodan kechib o'tib, Buxoro hududiga bostirib kirgan?
A) *Muoviya I* B) *Muoviya II*
C) *Umar ibn Abdulaziz* D) *Sulaymon*

**145.** 1365-yil Amir Temur va Ilyosxo'ja qo'shinlari o'rtasidagi jang tarixda qanday nom bilan shuhrat topgan?
A) *"Loy jangi"* B) *"Anqara jangi"*
C) *"Parvon jangi"* D) *"Tarak daryosi bo'yidagi jang"*

**146.** 1875-yil Turkiston general-gubernatori K.P.Xaufman bilan shartnoma imzolagan Qo'qon hukmdorini toping.
A) *Nasriddinbek* B) *Xudoyorxon*
C) *Sheralixon* D) *Norbo'tabiy*

**147.** 1917-yi1 14-martda Toshkent shahrida Tukiston taraqqiyparvarlari tomonidan tuzilgan ijtimoiy-siyosiy tashkilotni toping.
A) *"Ittifoqi muslimin"* B) *"Kengash"*
C) *"Sho'roi Islomiya"* D) *"Taraqqiy"*

**148.** Buxoro xonligida xon va shahzodalar o'rtasidagi munosabatlar masalasi bilan qaysi mansabdagi amaldor shug'ullangan?
A) *dodxoh* B) *xon yasovuli*
C) *ko'kaldosh* D) *mehtar*

**149.** Buyuk Ipak yo'li faoliyati nechanchi asrgacha davom etgan?
A) *XVII asrgacha* B) *XIX asrgacha*
C) *XVIII asrgacha* D) *XVI asrgacha*

BAHROM HIKMATOV

**150.** Quyidagi qaysi shahar Marg'itlar sulolasi davrida Buxoro amirligining poytaxti bo'lgan?
A) *Qarshi* B) *Shahrisabz*
C) *Buxoro* D) *Samarqand*

**151.** Quyida berilgan lavozimlardan qaysi biri Buxoro xonligida ashtarxoniylar davrida joriy etilgan?
A) *otaliq* B) *shayxulislom*
C) *devonbegi* D) *saroy qutvoli*

**152.** Xiva xonligida yerni ijaraga olib, hosilning teng yarmiga ishlovchilar qanday atalgan?
A) *barzikorlar* B) *vaqfchilar*
C) *yarimchilar* D) *bevatanlar*

**153.** VII asrda Movarourmahrga harbiy yurishlarini boshlagan xalqlarni toping.
A) *qoraxitoylar* B) *xioniylar*
C) *arablar* D) *mo'g'ullar*

**154.** "Ipak yo'li"ga shu nom 1877-yilda kim tomonidan berilgan?
A) *nemis olimi Genrix Shlimann*
B) *nemis geografi F.Rixtgofen*
C) *fransuz olimi Jak-Fransua Shampolyon*
D) *fransuz olimi A.Dyuperron*

**155.** XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligida viloyat va tuman hokimlari kimning tavsiyasiga binoan tayinlangan?
A) *dodxoh* B) *qo'shbegi*
C) *mushrif* D) *devonbegi*

**156.** "Katolik oqimining homiysi" sifatida G'arbda shuhrat qozongan temuriyzodani aniqlang.
A) *Pirmuhammad* B) *Umarshayx*
C) *Shohrux* D) *Mironshoh*

**157.** Quyidagilardan qaysi biri 1929-yilda O'zbekiston SSR tarkibidan chiqqan?
A) *Tojikiston ASSR* B) *Qoraqirg'iz muxtor viloyati*
C) *Qoraqalpog'iston ASSR* D) *Qozog'iston ASSR*

**158.** "Al-qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari muallifini toping.
A) *Abu Nasr Farobiy*
B) *Abu Ali ibn Sino*
C) *Abulxayr ibn Hammor*
D) *Ahmad al-Farg'oniy*

**159.** Quyidagilardan qaysi biri 1870-yil Toshkentda tashkil etilgan?
A) *Olimpiya shon-shuhrati muzeyi*
B) *Turkiston xalq kutubxonasi*
C) *Arxeologiya havaskorlari muzeyi*
D) *Temuriylar tarixi davlat muzeyi*

**160.** Mo'g'ullarning eng katta mag'lubiyati qaysi jangda yuz bergan? (1221-yil)
A) *Isfahon yaqinidagi jangda*
B) *O'tror qamalida*
C) *Parvon jangida*
D) *Arzinjon jangida*

**161.** 1507-yilda pul islohoti o'tkazgan shayboniy hukmdorni toping.
A) *Ubaydullaxon* B) *Abdulazizxon*
C) *Boqi Muhammadxon* D) *Muhammad Shayboniyxon*

**162.** O'zbekiston Respublikasida Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashlariga deputatlar necha yilga saylanadi?
A) *7 yil* B) *5 yil* C) *3 yil* D) *6 yil*

**163.** Loydan yasalgan va olovda pishirilgan idishlarni yasash sohasi - kulolchilik tosh davrining qaysi bosqichi muhim ixtirosi hisoblanadi?
A) *bronza* B) *eneolit* C) *neolit* D) *mezolit*

**164.** Quyidagi qaysi asar Amir Temurning harbiy san'ati va davlat boshqarish uslubiga bag'ishlangan?
A) *"Ravzat us-safo"* B) *"Habib us-siyar"*
C) *"Temur tuzuklari"* D) *"Al-Komil fit-tarix"*

**165.** 1878-yilda qaysi hududda mustamlakachilar zulmiga qarshi Yetimxon boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgan?
A) *Mingtepada* B) *Toshkentda*
C) *Namanganda* D) *Samarqandda*

**166.** Mahmud Yalavoch Movarounnahrni idora etish uchun qaysi shaharni o'ziga qarorgoh qilib olgan edi?
A) *Xo'jand* B) *Samarqand* C) *Buxoro* D) *Qarshi*

**167.** "Teatr - bu ibratxonadir" degan fikr qaysi jadid namoyandasiga tegishli?
A) *Fayzulla Xo'jayev* B) *Abdulla Qodiriy*
C) *Abdulhamid Cho'lpon* D) *Mahmudxo'ja Behbudiy*

**168.** Qaysi dostonda qoraqalpoqlarning ozodlik va mustaqillik uchun fidoyilarcha kurashi tasvirlangan?
A) *"Qirqqiz"* B) *"Bo'zatov"*
C) *"Edigey"* D) *"Alpomish"*

**169.** Quyidagilardan qaysi biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?
A) *Turkiston general-gubernatorligi*
B) *Samarqand xonligi*
C) *Toshkent bekligi*
D) *Buxoro Xalq Sovet Respublikasi*

**170.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 18-noyabrida bo'lib o'tgan VIII sessiyasida qabul qilingan qonunni toping.
A) *"O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"*
B) *"O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"*
C) *"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tarkibini tasdiqlash to'g'risida"*
D) *"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"*

**171.** Buxoro xonligida hukmronlik qilgan so'nggi shayboniy hukmdorni toping.
A) *Pirmuhammad II* B) *Navro'z Ahmadxon*
C) *Ubaydullaxon* D) *Abdullaxon II*

**172.** Quyida sanab o'tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?
A) *Nuriddin Muhitdinov* B) *Usmon Yusupov*
C) *Abdulhamid Cho'lpon* D) *Sharof Rashidov*

**173.** Qadimgi bitiklarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi maxsus fanni toping.
A) *epigrafika* B) *lingvistika*
C) *numizmatika* D) *geraldika*

BAHROM HIKMATOV

**174.** 1852-yilda Toshkentdan chaqirilgan qo‘shin bilan qipchoqlar qirg‘inini uyushtirgan Qo‘qon xonini aniqlang.
A) *Xudoyorxon* B) *Sheralixon*
C) *Umarxon* D) *Olimxon*

**175.** Andijondagi 1898-yil qo‘zg‘olonidan keyin podsho Nikolay II Turkiston general-gubernatori A.Vrevskiyni lavozimidan chetlatib, uning vazifasini vaqtinchalik kimning zimmasiga yuklagan?
A) *K.P.Kaufman* B) *S.M.Duxovskoy*
C) *G.Rozenbax* D) *N.Korolkov*

**176.** Turk xoqonligining markazi bo‘lgan hududni belgilang.
A) *Farg‘ona* B) *Balx*
C) *Zarafshon vodiysi* D) *Oltoy*

**177.** Quyida berilgan qo‘zg‘olonlardan qaysi biriga Dukchi eshon rahbarlik qilgan?
A) *Miyonqol qo‘zg‘oloniga*
B) *Jizzax qo‘zg‘oloniga*
C) *Vabo isyoniga*
D) *Andijon qo‘zg‘oloniga*

**178.** Amir Temur sarbadorlar harakati rahbarlaridan bo‘lgan kimning hayotini Amir Husayndan so‘rab oladi va uni o‘limdan saqlab qoladi?
A) *Abu Bakr Kalaviy*
B) *Mahmud Torobiy*
C) *Hoshim ibn Hakim*
D) *Mavlonozoda Samarqandiy*

**179.** 1996-yilda qaysi shaharda Amir Temur haykali ochilgan?
A) *Xiva* B) *Termiz* C) *Buxoro* D) *Samarqand*

**180.** O‘zbekiston Respublikasida 2003-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.
A) *O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi*
B) *O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*
C) *O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasi*
D) *O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi*

**181.** Xiva xonligida urush paytlarida qoraqalpoqlardan qanday soliq yig‘ib olingan?
A) *zakot* B) *qozon puli* C) *salg‘ut* D) *ushr*

**182.** 769-783-yillarda bo‘lib o‘tgan "Oq kiyimlilar" qo‘zg‘olonining rahbarini "Muqanna" laqabi bilan atashgan. "Muqanna" so‘zining ma’nosi nima?
A) *"dinning ulug‘ yulduzi"*
B) *"hidoyat yo‘lining sarboni"*
C) *"musulmonlar e’tiqodini tuzatuvchi"*
D) *"niqobdor"*

**183.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri "xorazmshoh" unvonini tiklagan?
A) *Elarslon* B) *Takash*
C) *Otsiz* D) *Qutbiddin Muhammad*

**184.** 1810-yilda Toshkentni Qo‘qon xonligi tarkibiga qo‘shib olgan hukmdorni aniqlang.
A) *Muhammad Ali* B) *Olimxon*
C) *Xudoyorxon* D) *Norbo‘tabiy*

**185.** 1919-yilda tuzilgan Farg‘ona muvaqqat muxtoriyat hukumati boshlig‘i etib tayinlangan shaxsni toping.
A) *Abdurahmon O‘razayev* B) *Ubaydulla Xo‘jayev*
C) *Obidjon Mahmudov* D) *Madaminbek*

**186.** 1864-yil M.Chernyayev qaysi shaharni egallash uchun olib borgan birinchi harakatida mag‘lubiyatga uchragan?
A) *Xiva* B) *Samarqand* C) *O‘ratepa* D) *Toshkent*

**187.** Shohruxbiy vafotidan keyin Qo‘qon xonligi taxtiga o‘tirgan shaxsni aniqlang.
A) *Abdurahimbiy* B) *Norbo‘tabiy*
C) *Abdulkarimbiy* D) *Erdonabiy*

**188.** Kushon davlatida qaysi hukmdor hukmronligi davrida poytaxt Baqtriyadan Peshovar (hozirgi Pokiston) ga ko‘chirilgan?
A) *Kanishka* B) *Demetriy* C) *Doro I* D) *Kir II*

**189.** 1996-yilda Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda qaysi buyuk vatandoshimiz tavalludining 660 yilligi keng miqyosda nishonlandi?
A) *Amir Temur*
B) *Jaloliddin Manguberdi*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
D) *Mirzo Ulug‘bek*

**190.** Quyidagilardan kim qoraqo‘yunlar, muzaffariylar, jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakatlarini qo‘llab-quvvatlagan?
A) *Boyazid Yildirim* B) *Amir Xudoydot*
C) *Amir Husayn* D) *Amirak Ahmad*

**191.** Quyida sanab o‘tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?
A) *Abdulla Avloniy*
B) *Inomjon Usmonxo‘jayev*
C) *Rafiq Nishonov*
D) *Islom Karimov*

**192.** Shohrux 1409-yilda kimni Movarounnahr va Turkistonga hokim qilib tayinlagan?
A) *Xalil Sultonni* B) *Husayn Boyqaroni*
C) *Mironshohni* D) *Mirzo Ulug‘bekni*

**193.** “Musiqa kitobi” asari muallifini toping.
A) *Ahmad al-Farg‘oniy*
B) *Abu Nasr Farobiy*
C) *Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy*
D) *Abu Ali ibn Sino*

**194.** Qaysi davrda inson o‘q-yoy yasashni o‘rganib oldi?
A) *mezolit* B) *ilk paleolit*
C) *o‘rta paleolit* D) *so‘nggi paleolit*

**195.** Quyidagi qo‘zg‘olonlardan qaysi biri 1916-yilda bo‘lib o‘tgan?
A) *Jizzax qo‘zg‘oloni*
B) *Po‘latxon qo‘zg‘oloni*
C) *Dukchi Eshon qo‘zg‘oloni*
D) *Ernazarbiy qo‘zg‘oloni*

**196.** XVI asrda Oydagi kraterlardan biriga qaysi alloma vatandoshimizning nomi berilgan?
A) *Alouddin Ali Qushchi*
B) *Qozizoda Rumiy*
C) *Abu Rayhon Beruniy*
D) *Ahmad al-Farg‘oniy*

**197.** 1821-yilda Miyonqol qo‘zg‘oloni qaysi Buxoro amiri davrida bo‘lib o‘tgan?
A) *Amir Nasrullo* B) *Doniyolbiy otaliq*
C) *Amir Haydar* D) *Amir Shohmurod*

BAHROM HIKMATOV

**198.** Qaysi alloma al-jabrni mustaqil fan darajasiga ko'tarib, algebra faniga asos solgan va tarixda o'zidan o'chmas iz qoldirgan?
A) *Mahmud az-Zamaxshariy*
B) *Muhammad al-Xorazmiy*
C) *Abu Ali ibn Sino*
D) *Ahmad al-Farg'oniy*

**199.** 1885-yil Buxoro amirligining Baljuvon bekligida bo'lib o'tgan dehqonlar qo'zg'oloniga kim rahbarlik qilgan?
A) *Po'latxon* B) *Iso Avliyo*
C) *Vose* D) *Darvishxon*

**200.** Qaysi tariqat asoschisining fikricha, shariatsiz tariqat, tariqatsiz ma'rifat, ma'rifatsiz haqiqat bo'la olmaydi, ularning har biri ikkinchisini to'ldiradi va takomillashtiradi?
A) *Naqshbandiya* B) *Yassaviya*
C) *Moturidiya* D) *Kubroviya*

**201.** 1997-yilda Respublikamizda quyidagi qaysi shaharning 2500 yillik yubileyi keng nishonlangan?
A) *Termiz* B) *Xiva*
C) *Samarqand* D) *Shahrisabz*

**202.** Yalangto'sh Bahodir tomonidan qaysi hududda Tillakori masjid-madrasasi qurdirilgan?
A) *Samarqandda* B) *Buxoroda*
C) *Xivada* D) *Toshkentda*

**203.** 1583-yildan boshlab Shayboniylar davlatida kim rasman xon deb e'lon qilingan?
A) *Abdulazizxon* B) *Nodir Muhammadxon*
C) *Navro'z Ahmadxon* D) *Abdullaxon II*

**204.** 1925-1932-yillarda Qozog'iston ASSR tarkibida bo'lgan davlat tuzilmasini aniqlang.
A) *O'zbekiston SSR*
B) *Qoraqalpoq avtonom viloyati*
C) *Turkiston general-gubernatorligi*
D) *Tojikiston ASSR*

**205.** 2007-yilda Respublikamizda qaysi shaharning 2750 yillik yubileyi nishonlangan?
A) *Samarqand* B) *Xiva* C) *Buxoro* D) *Termiz*

**206.** Mil.avv. 522-yilda Marg'iyonada fors istilochilariga qarshi ko'tarilgan yirik xalq qo'zg'oloniga kim boshchilik qilgan?
A) *Frada* B) *To'maris* C) *Shiroq* D) *Spitaman*

**207.** Qutayba qo'shinlari Samarqandga hujum qilgan vaqtda kim Sug'd podshosi edi?
A) *Hurzod* B) *G'urak* C) *Divashtich* D) *Chag'on*

**208.** 1763-yil Qo'qon xonligi taxtiga o'tirgan shaxsni aniqlang.
A) *Abdurahimbiy* B) *Norbo'tabiy*
C) *Erdonabiy* D) *Abdulkarimbiy*

**209.** XIX asrning 70-yillarida Qo'qon xonligida ko'tarilgan qo'zg'olonga rahbarlik qilgan shaxsni toping.
A) *Oydo'stbiy* B) *Dukchi eshon*
C) *Ernazarbiy* D) *Po'latxon*

**210.** O'rta Osiyo aholisi e'tiqod qilgan qaysi dinda umrning tub ma'nosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amaldan iborat bo'lgan?
A) *zardushtiylik* B) *nasroniylik*
C) *buddaviylik* D) *shomoniylik*

**211.** Quyidagi shaharlardan qaysi biri ilk o'rta asrlarda Eloqning markazi bo'lgan?
A) *Koson* B) *Choch* C) *Tunkat* D) *Varaxsha*

**212.** Quyidagi qaysi hukmdor Buxoro amirligida hukmronlik qilgan mang'itlar sulolasining vakili hisoblanadi?
A) *Subhonqulixon* B) *Muhammad Rahimbiy*
C) *Ubaydullaxon II* D) *Imomqulixon*

**213.** Qaysi ahamoniy hukmdor davrida O'rta Osiyo xalqlari yunon-fors urushlarida qatnashgan?
A) *Bess* B) *Doro III* C) *Mitridat I* D) *Kserks*

**214.** Qo'qon xonligini 1842-yilda qaysi davlat bosib olgan?
A) *Xiva xonligi* B) *Buxoro amirligi*
C) *Toshkent hokimligi* D) *Rossiya imperiyasi*

**215.** O'zbek milliy kurashi bo'yicha ilk xalqaro musobaqa qaysi shaharlarda o'tkazilgan?
A) *Toshkent va Marg'ilon*
B) *Samarqand va Buxoro*
C) *Xiva va Qarshi*
D) *Termiz va Shahrisabz*

**216.** Temuriylar davrida qaysi shaharda Xonim, Qutbiddin Sadr va Muhammad Sadr madrasalari faoliyat ko'rsatgan?
A) *G'ijduvon* B) *Buxoro* C) *Hirot* D) *Samarqand*

**217.** Amir Temurning Angliya qiroli Genrix IV bilan olib borgan diplomatik munosabatlarida faol ishtirok etgan shahzodani aniqlang.
A) *Pirmuhammad* B) *Mironshoh*
C) *Shohrux* D) *Umarshayx*

**218.** 1998-yilda yurtimizda qaysi vatandoshimizning 1200 yillik yubileyi nishonlangan?
A) *Xo'ja Ahror Valiy* B) *Ahmad al-Farg'oniy*
C) *Najmiddin Kubro* D) *Bahouddin Naqshband*

**219.** Qoraqalpoqlarning qaysi dostonida Xorazm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi kurashi tasvirlangan?
A) *"Qirqqiz"* B) *"Edigey"* C) *"Qublon"* D) *"Alpomish"*

**220.** Turkiston Muxtoriyatining markazi etib belgilangan shaharni toping.
A) *Qo'qon* B) *Toshkent* C) *Buxoro* D) *Samarqand*

**221.** XIX asr oxiri - XX asr boshlarida musiqa san'atini rivojlantirishga oid farmonlar chiqargan Xiva xonini toping.
A) *Amir Nasrullo* B) *Muhammad Rahimxon II*
C) *Xudoyorxon* D) *Sheralixon*

**222.** "Sho'roi Ulamo" tashkiloti tomonidan nashr etilgan jurnal nomini aniqlang.
A) *"Osiyo"* B) *"al-Izoh"* C) *"Oyna"* D) *"Kengash"*

**223.** "Bo'zatov" dostoni muallifini aniqlang.
A) *Kunxo'ja* B) *Berdaq*
C) *K.Sultonov* D) *Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li*

**224.** Mil avv. III asrda O'rta Osiyoda . . . .
A) *Zardusht va'zlari matnlarining hammasi 21 ta kitobda jamlandi*
B) *Avestoning ilk qismi paydo bo'ldi*
C) *Ilk shahar alomatlari uchraydigan manzilgohlar paydo bo'la boshladi*
D) *Ilk davlatlar paydo bo'ldi*

BAHROM HIKMATOV

**225.** Arablar Movarounnahrni bosib olgach joriy qilgan soliqni belgilang.
A) *shulen* B) *kalon* C) *qopchur* D) *zakot*

**226.** 1404-yil 27-noyabrda Amir Temur 200 ming qo'shin bilan qayerga yurishga otlangan?
A) *Turkiyaga* B) *Eronga* C) *Hindistonga* D) *Xitoyga*

**227.** "Cho'ponota" asarining muallifini aniqlang.
A) *A.Jenkinson* B) *V.Vyatkin*
C) *N.Vasilevskiy* D) *X.Vamberi*

**228.** "Al-jabr val-muqobala" kitobi muallifini toping.
A) *Muhammad al-Xorazmiy*
B) *Abu Ali ibn Sino*
C) *Ahmad al-Farg'oniy*
D) *Mahmud az-Zamaxshariy*

**229.** 2007-yilda AYSESKO tomonidan "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingan shaharni belgilang.
A) *Toshkent* B) *Samarqand* C) *Xiva* D) *Buxoro*

**230.** Quyida berilgan hukmdorlardan qaysi biri shayboniylar sulolasining vakili hisoblanadi?
A) *Imomqulixon* B) *Abulfayzxon*
C) *Muhammad Rahim* D) *Abu Said*

**231.** Yunon-Baqtriya podsholigiga asos solgan hukmdorni toping.
A) *Yevtidem* B) *Demetriy*
C) *Kudzula Kadfiz* D) *Diodot*

**232.** Quyida sanab o'tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?
A) *Sobir Kamolov* B) *Abdurauf Fitrat*
C) *Amin Niyozov* D) *Nuriddin Muhitdinov*

**233.** 1186-yilda butunlay tugatilgan davlatni toping.
A) *Somoniylar davlati* B) *Qoraxoniylar davlati*
C) *Saljuqiylar davlati* D) *G'aznaviylar davlati*

**234.** XVI asr oxirida kimning hukmronligi davrida Buxoro xonligi ulkan markazlashgan davlatga aylangan?
A) *Muhammad Shayboniyxon* B) *Abdullaxon II*
C) *Ismoil Safaviy* D) *Abulg'oziyxon*

**235.** Alisher Navoiyga qadar o'zbek she'riyatida . . . ning darajasiga yetadigan shoir bo'lmagan.
A) *Lutfiy*
B) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
C) *Boborahim Mashrab*
D) *Atoiy*

**236.** 1997-yilda Respublikamizda quyidagi qaysi shaharning 2500 yillik yubileyi keng nishonlangan?
A) *Samarqand* B) *Termiz* C) *Buxoro* D) *Shahrisabz*

**237.** Qadimda so'g'diylar qaysi hududlarda istiqomat qilishgan?
A) *Farg'ona vodiysi va Surxon vohasida*
B) *Surxon va Qashqadaryo vohasida*
C) *Zarafshon va Qashqadaryo vohasida*
D) *Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasida*

**238.** 1420-yilda Mirzo Ulug'bek farmoni bilan qaysi shaharda madrasa barpo etilgan?
A) *Hirotda* B) *Buxoroda*
C) *G'ijduvonda* D) *Samarqandda*

**239.** Xiva xonligida xon farmonlarini tasdiqlovchi kengash bu - . . .
A) *Devon al-xaraj* B) *Oliy Kengash*
C) *Devon al-mag'rib* D) *Devon al-mashriq*

**240.** 992-yilda kim boshchiligidagi qoraxoniylar Movarounnahrga hujum boshlagan?
A) *Nuh* B) *Horun Bug'roxon*
C) *Sobuqtegin* D) *Ibrohim Bo'ritegin*

**241.** Qo'qon xonligida Xudoyorxondan so'ng taxtga o'tirgan hukmdorni toping.
A) *Amir Abdulahad* B) *Nasriddinbek*
C) *Muhammad Rahimxon II* D) *Said Abdulla*

**242.** O'zbekiston Respublikasida qaysi davlat vakillik organi qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi?
A) *Konstitutsiyaviy Sud* B) *Oliy Sud*
C) *Vazirlar Mahkamasi* D) *Oliy Majlis*

**243.** Oqmachit qal'asi rus qo'shinlari tomonidan egallangach, unga qanday nom berilgan?
A) *Verniy forti* B) *Perovskiy forti*
C) *Chernyayev forti* D) *Veryovkin forti*

**244.** Quyidagilardan qaysi biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?
A) *Turkiston general-gubernatorligi*
B) *Xorazm Xalq Sovet Respublikasi*
C) *Samarqand xonligi*
D) *Toshkent bekligi*

**245.** Amir Temur vafotidan keyin mamlakatda boshlanib ketgan o'zaro kurash va isyonlarga chek qo'yib, 1409-yilda hokimiyatni o'z qo'liga olgan temuriyzodani aniqlang.
A) *Husayn Boyqaro* B) *Mironshoh*
C) *Pirmuhammad* D) *Shohrux*

**246.** Qaysi davrga kelib inson sun'iy tarzda (yog'ochni bir-biriga ishqalash, chaqmoqtoshni bir-biriga urish orqali) olov hosil qilishni ham o'rganib oldi?
A) *mezolit* B) *neolit*
C) *so'nggi paleolit* D) *eneolit*

**247.** "Shajarai Xorazmshohiy" asarining muallifini aniqlang.
A) *Muhammad Yusuf Bayoniy*
B) *Xudoyberdi Avaz Muhammad*
C) *Shermuhammad Munis*
D) *Hasanbek Rumlu*

**248.** Ma'muniylar hukmronligi davrida Xorazmshohlar davlatining poytaxtiga aylangan shaharni toping.
A) *Ko'hna Urganch* B) *Xiva*
C) *Kat* D) *Tuproqqal'a*

**249.** General-mayor Sobir Rahimov 1945-yil 26-martda qaysi shaharni shturm qilishda halok bo'lgan?
A) *Stalingrad* B) *Gdansk* C) *Kursk* D) *Moskva*

**250.** XIX asr o'rtalarida Xiva xonligida xon qarorgohi qaysi shaharda joylashgan?
A) *Hazorasp* B) *Tuproqqal'a*
C) *Xiva* D) *Nukus*

**251.** Qal'a shaklida qurilgan quyidagi shaharlardan qaysi biri qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan me'moriy madaniyat yodgorligi hisoblanadi? (Uch xonliklar davri)
A) *Qo'yqirilganqal'a* B) *Jonbosqal'a*
C) *Tuproqqal'a* D) *Eshonqal'a*

BAHROM HIKMATOV

**252.** 1441-1501-yillarda yashagan tarixiy shaxsni aniqlang.
A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
B) *Amir Temur*
C) *Mirzo Ulug'bek*
D) *Alisher Navoiy*

**253.** Qaysi shahar mil.avv. V asrda bunyod etilgan?
A) *Yangi Urganch* B) *Toshkent*
C) *Samarqand* D) *Xiva*

**254.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga necha yoshdan kichik bo'lmagan fuqarolar saylanish huquqiga ega?
A) *21 yoshdan* B) *35 yoshdan*
C) *18 yoshdan* D) *25 yoshdan*

**255.** Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda qishloq jamoalari yerlarida yashab, yer va suvdan iborat umumiy mulkka ega bo'lgan erkin ziroatchilar tabaqasi qanday atalgan?
A) *chokar* B) *kadivar*
C) *kashovarz* D) *dehqon*

**256.** 1918-yilda Asfandiyorxon tomonidan Xiva xonligi qurolli kuchlari qo'mondoni etib tayinlangan shaxsni aniqlang.
A) *Mirbadalov* B) *Junaidxon*
C) *Said Abdulla* D) *Ortiq Oxun*

**257.** XVIII asrda qoraqalpoqlarning qaysi davlat fuqaroligiga qabul qilinishi ularni Eron hukmdori Nodirshoh hujumidan saqlab qolgan?
A) *Qo'qon xonligi* B) *Rossiya imperiyasi*
C) *Buxoro amirligi* D) *Xiva xonligi*

**258.** Quyidagilardan VI asrda tamomila barbod bo'lgan davlatni toping.
A) *Eftallar davlati* B) *Turk xoqonligi*
C) *Qarluqlar davlati* D) *Xioniylar davlati*

**259.** V asr boshlarida O'rta Osiyo hududiga Sharqdan kirib kelgan qabilani toping.
A) *eftallar* B) *qarluqlar* C) *xioniylar* D) *o'g'uzlar*

**260.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi qaroriga muvofiq qaysi shaharda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi?
A) *Toshkentda* B) *Qarshida*
C) *Buxoroda* D) *Samarqandda*

**261.** Davan davlatining poytaxti bo'lgan shaharni toping.
A) *Ershi* B) *Ko'zaliqir* C) *Peshovar* D) *Bityan*

**262.** O'rta asrlarda O'rta Osiyoda qaysi davlatning barpo etilishida qarluq, chigil va yag'mo qabilalari yetakchi rol o'ynagan?
A) *Qoraxoniylar* B) *Somoniylar*
C) *G'aznaviylar* D) *Tohiriylar*

**263.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri Qo'qondagi minglar sulolasiga asos solgan?
A) *Abdurahimbiy* B) *Shohruxbiy*
C) *Erdonabiy* D) *Abdulkarimbiy*

**264.** Turkistonda sovet rejimiga qarshi qaratilgan istiqlolchilik harakati rahbarini aniqlang.
A) *Ernazarbiy* B) *Kichik Ergash*
C) *Oydo'stbiy* D) *Bobo Go'klan*

**265.** O'zbekiston SSR poytaxti bo'lgan shaharni toping. (1925-yil)
A) *Xiva* B) *Qo'qon* C) *Jizzax* D) *Buxoro*

**266.** Qadimgi odamlarning suyak qoldiqlarini tekshirib, ularning tashqi qiyofasini tiklash va rivojlanishini o'rganish bilan shug'ullanuvchi olimlar nima deb ataladi?
A) *lingvistlar* B) *arxeologlar*
C) *antropologlar* D) *etnograflar*

**267.** O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga ko'ra, necha yoshga to'lgan fuqarolar saylash huquqiga ega bo'ladi?
A) *20 yoshga* B) *21 yoshga*
C) *16 yoshga* D) *18 yoshga*

**268.** 1480-yil O'zbek ulusi davlatini qayta tiklagan shaxsni aniqlang.
A) *Muhammad Shayboniyxon*
B) *Mahmud Sulton*
C) *Abu Said*
D) *Shohbudog' Sulton*

**269.** Jaloliddin Manguberdi Parvon dashtidagi jangda qaysi mo'g'ul sarkardasi ustidan g'alaba qozongan?
A) *Shiki Xutuxu* B) *Alouddin Qayqubod*
C) *G'oyirxon* D) *Taynol no'yon*

**270.** Quyidagilardan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asari muallifini toping.
A) *Ahmad al-Farg'oniy*
B) *Abu Nasr Farobiy*
C) *Abu Ali ibn Sino*
D) *Abu Rayhon Beruniy*

**271.** 1433-yilda Mirzo Ulug'bek farmoni bilan qaysi shaharda madrasa barpo etilgan?
A) *Samarqandda* B) *Hirotda*
C) *G'ijduvonda* D) *Buxoroda*

**272.** Rivoyatga ko'ra, qaysi shaharga fors shohi Kir II asos solgan?
A) *Nautaka* B) *Maroqand*
C) *Kurushkat* D) *Zariasp*

**273.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra quyidagi qaysi shaharda Islom Karimov haykali o'rnatilgan?
A) *Samarqand* B) *Termiz* C) *Buxoro* D) *Xiva*

**274.** 1921-yil mart oyida bir qator janglarda mag'lubiyatga uchragan Buxoro amiri Olimxon qaysi davlat hududiga o'tib ketgan?
A) *Turkiya* B) *Eron* C) *Hindiston* D) *Afg'oniston*

**275.** Bobur Mirzo Muhammad Shayboniyxondan yengilgach, 1504-yilda qaysi viloyatda o'z hokimiyatini o'rnatgan?
A) *Kobul* B) *Balx* C) *O'ratepa* D) *Marv*

**276.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 25-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra quyidagi qaysi shaharda Islom Karimov haykali o'rnatilgan?
A) *Buxoro* B) *Qarshi* C) *Termiz* D) *Xiva*

BAHROM HIKMATOV

**277.** Boysun tog'laridan topilgan Teshiktosh g'ori qaysi tosh davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblanadi?
A) *o'rta paleolit* B) *neolit*
C) *so'nggi paleolit* D) *mezolit*

**278.** Buxoro xonligi qaysi sulolaning boshqaruvi davridan Buxoro amirligi deb atala boshlangan?
A) *shayboniylar* B) *ashtarxoniylar*
C) *mang'itlar* D) *qo'ng'irotlar*

**279.** 1920-yil aprel oyida Butunxorazm xalq vakillarining I qurultoyida XXSR Nozirlar Sho'rosining raisi etib saylangan shaxsni aniqlang.
A) *Polvonniyoz Yusupov* B) *Is'hoqxo'ja Xo'jayev*
C) *Turor Risqulov* D) *Fayzulla Xo'jayev*

**280.** Ilk o'rta asrlarda Koson, Axsikat va Quva kabi yirik markaziy shaharlari bo'lgan mahalliy hokimlikni aniqlang.
A) *Toxariston* B) *Sug'd* C) *Farg'ona* D) *Eloq*

**281.** 2014-yilning 15-16-may kunlari qaysi shaharda buyuk alloma va mutafakkirlarning ilmiy merosi va uning zamonaviy sivilizatsiya tarixida tutgan o'rni va roliga bag'ishlangan xalqaro konferensiya o'tkazilgan?
A) *Xivada* B) *Toshkentda*
C) *Samarqandda* D) *Buxoroda*

**282.** 1867-yilda tashkil etilgan Turkiston general-gubernatorligi dastlab qaysi viloyatlardan iborat bo'lgan?
A) *Yettisuv va Samarqand* B) *Yettisuv va Sirdaryo*
C) *Zarafshon va Farg'ona* D) *Sirdaryo va Samarqand*

**283.** Temuriylar davrida Movarounnahrning poytaxti bo'lgan shaharni aniqlang.
A) *Samarqand* B) *Farg'ona*
C) *O'ratepa* D) *Buxoro*

**284.** Shiroq haqidagi rivoyat qaysi fors podshosi davri bilan bog'liq?
A) *Doro II* B) *Kir II* C) *Doro I* D) *Kserks*

**285.** O'zbekistonda qaysi partiya mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassislari va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi?
A) *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi*
B) *O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi*
C) *O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi*
D) *O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*

**286.** Xiva xonligida nomuntazam qo'shin qanday atalgan?
A) *navkariya* B) *askariya*
C) *xon navkarlari* D) *xalq lashkari*

**287.** 1370-yilning bahorida Amir Temur kimga qarshi qo'shin tortgan?
A) *Amir Husayn* B) *To'xtamishxon*
C) *Barquq* D) *Boyazid Yildirim*

**288.** O'zbekistonda 1996-yil qanday yil deb e'lon qilingan?
A) *"Jaloliddin Manguberdi" yili*
B) *"Alisher Navoiy" yili*
C) *"Amir Temur" yili*
D) *"Mirzo Ulug'bek" yili*

**289.** Ahmad Donish Buxoroning qaysi amiri haqida quyidagi fikrlarni bayon qilgan?
*"U amirlik qalamini kambag'allik kiyimi bilan bezadi. Jahon bog'idan dushmanlik va yomonlikni tomiri bilan sug'urib tashladi va adolat nihollarini o'tqazdi."*
A) *Amir Shohmurod* B) *Amir Haydar*
C) *Amir Nasrullo* D) *Amir Muzaffar*

**290.** 1873-yil Xiva bosib olingach, xon xazinasini kontributsiya (tovon) evaziga musodara qilib Sankt-Peterburgga jo'natgan shaxsni aniqlang.
A) *M.Chernyayev* B) *N.Veryovkin*
C) *M.Skobelev* D) *K.P.Kaufman*

**291.** Sulton Ahmad davrida Bobur Mirzoning otasi Umarshayx Mirzoga qaysi hududlar qo'shib berilgan?
A) *Farg'ona va Xo'jand* B) *Axsi va Kesh*
C) *Toshkent va Sayram* D) *Turkiston va Taroz*

**292.** 1018 ta qo'zg'almas yulduzning o'rni va holatini aniqlab, ularning astronomik jadvalini tuzgan olimni aniqlang.
A) *Qozizoda Rumiy* B) *Abu Rayhon Beruniy*
C) *Mirzo Ulug'bek* D) *Ali Qushchi*

**293.** 1917-yilda tashkil etilgan Turkiston o'lkasi musulmonlar kengashi (kraymussovet) raisi bo'lgan shaxsni toping.
A) *Mahmudxo'ja Behbudiy*
B) *Ismoil G'aspirali*
C) *Usmon Yusupov*
D) *Mustafo Cho'qay*

**294.** Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi birinchi vakili etib tayinlangan shaxsni aniqlang.
A) *P.Lessar* B) *S.M.Duxovskoy*
C) *M.Skobelev* D) *F.Girs*

**295.** Somoniylar davlatida xalqaro savdo-sotiqda ishlatilgan kumush tangalar nima deb atalgan?
A) *dirham* B) *fulusi adliya* C) *fals* D) *kepaki*

**296.** Qaysi shahar Xitoy manbalarida Bityan deb atalgan?
A) *Baqtra* B) *Qang'dez* C) *Maroqanda* D) *Ershi*

**297.** RKP(b) MK Siyosiy byurosining "O'rta Osiyo respublikalarini milliy-hududiy chegaralash to'g'risida"gi maxsus qarori 1924-yil 12-iyunda kimning taklifi bilan qabul qilingan?
A) *I.V.Stalin* B) *V.I.Lenin*
C) *M.Frunze* D) *Y.Rudzutak*

**298.** Sug'd yozuvi qaysi qadimgi yozuv asosida vujudga kelgan?
A) *xorazm yozuvi* B) *baqtriya yozuvi*
C) *oromiy yozuvi* D) *toxar yozuvi*

**299.** Quyidagilardan qaysi biri XX asrning birinchi yarmida tashkil topgan?
A) *Turkiston general-gubernatorligi*
B) *Toshkent bekligi*
C) *Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat hukumati*
D) *Samarqand xonligi*

**300.** Qadim zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qazishma ishlarini amalga oshiruvchi olimlar nima deb ataladi?
A) *lingvistlar* B) *etnograflar*
C) *arxeologlar* D) *antropologlar*

BAHROM HIKMATOV

**301.** Qaysi Xiva xoni hukmronligi davrida "Islohotlar loyihasi" qabul qilingan?
A) *Junaidxon* B) *Muhammad Rahimxon I*
C) *Asfandiyorxon* D) *Said Abdulla*

**302.** Tosh davrining qaysi bosqichiga kelib qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turar joylar qura boshlaganlar?
A) *bronza* B) *eneolit* C) *mezolit* D) *neolit*

**303.** Quyidagi qaysi hukmdor Buxoro xonligida hukmronlik qilgan ashtarxoniylar sulolasining vakili hisoblanadi?
A) *Umarxon* B) *Imomqulixon*
C) *Muhammad Rahimxon I* D) *Mahmud Sulton*

**304.** O'zbekiston Respublikasida 1995-yilda tashkil etilgan siyosiy partiyani toping.
A) *O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi*
B) *O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi*
C) *O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi*
D) *O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi*

**305.** Amudaryodan shimolda joylashgan boy viloyatlarni arablar nima deb atashgan?
A) *Movarounnahr* B) *Chag'oniyon*
C) *Marv* D) *Xuroson*

**306.** 1417-yilda qaysi shaharda Mirzo Ulug'bek tomonidan madrasa qurdirilgan?
A) *Hirotda* B) *Samarqandda*
C) *Buxoroda* D) *G'ijduvonda*

**307.** Quyida sanab o'tilgan siyosiy arboblardan qaysi biri O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari vazifasida **faoliyat yuritmagan**?
A) *Muhammadjon Tinishboyev*
B) *Rafiq Nishonov*
C) *Inomjon Usmonxo'jayev*
D) *Islom Karimov*

**308.** Xiva xonligida qo'shinning bosh qo'mondoni . . . deb atalgan.
A) *to'pchiboshi* B) *yasovulboshi*
C) *shug'ovul* D) *parvonachi*

**309.** O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 10-dekabrida bo'lib o'tgan XI sessiyasida qabul qilingan qonunni toping.
A) *"O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"*
B) *"O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to'g'risida"*
C) *"O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"*
D) *"O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida"*

**310.** 1865-yil Toshkent shahrini egallagan rus generalini aniqlang.
A) *V.Perovskiy* B) *M.Chernyayev*
C) *N.Veryovkin* D) *K.P.Kaufman*

**311.** "Arastuning "Metafizika" asariga sharh" asari muallifini toping.
A) *Abu Sahl Masihiy*
B) *Abulxayr ibn Hammor*
C) *Ahmad al-Farg'oniy*
D) *Abu Nasr Farobiy*

**312.** 1405-yil 18-mart kuni Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilgan shaxsni toping.
A) *Xalil Sulton Mirzo*
B) *Mirzo Ulug'bek*
C) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
D) *Sulton Husayn Boyqaro*

**313.** 1557-1558-yillarda kimning hukmronligi davrida Buxorodan Moskvaga elchilar yuborilgan?
A) *Abdullaxon II* B) *Abulg'oziyxon*
C) *Amir Temur* D) *Ismoil Somoniy*

**314.** Quyidagi shaxslardan qaysi biri 1271-yil Chig'atoy ulusida pul islohotini o'tkazgan?
A) *Mahmud Yalavoch*
B) *Shamsiddin Mahbubiy*
C) *Mahmud Torobiy*
D) *Ma'sudbek*

**315.** Mil. avv. 3-ming yillik o'rtalaridan boshlab asta-sekin mehnat qurollari, qurol-yarog'lar va zeb-ziynatlar tayyorlashda ishlatiluvchi asosiy ashyoga aylanib qolgan metallni toping.
A) *oltin* B) *kumush* C) *bronza* D) *temir*

**316.** 1898-yili Turkiston general-gubernatori etib tayinlangan shaxsni aniqlang.
A) *A.N.Kuropatkin* B) *S.M.Duxovskoy*
C) *G.Rozenbax* D) *K.P.Kaufman*

**317.** 2003-yilda qaysi alloma tavalludining 900 yilligi keng nishonlangan?
A) *Mirzo Ulug'bek* B) *Amir Temur*
C) *Imom al-Buxoriy* D) *Abduxoliq G'ijduvoniy*

**318.** Rossiya hukumati tomonidan 1858-yilda Buxoro va Xivaga yuborilgan diplomatik missiya rahbarini toping.
A) *A.Byorns* B) *N.Ignatyev*
C) *A.Jenkinson* D) *V.Vyatkin*

**319.** "Haq olinur berilmas" shiorini o'rtaga tashlagan vatandoshimizni toping.
A) *Mahmud Torobiy*
B) *Mahmudxo'ja Behbudiy*
C) *Cho'lpon*
D) *Abdurauf Fitrat*

**320.** Ilk o'rta asrlarda Choch hukmdorlari nima deb atalgan?
A) *tudun* B) *ixshid* C) *amir* D) *xon*

**321.** Qoraqalpoqlarning XVII asr oxiri - XVIII asr boshlarida barpo etilgan shahrini aniqlang.
A) *Xonqa* B) *Qo'ng'irot* C) *Mo'ynoq* D) *Taxta*

**322.** Amir Temurning qaysi raqibiga qarshi so'nggi shiddatli jangi 1395-yilning 15-aprelida Shimoliy Kavkazda Tarak (Terek) daryosi bo'yida sodir bo'lgan?
A) *Misr sultoni Barquqga*
B) *Oltin O'rda xoni To'xtamishxonga*
C) *Turk sultoni Boyazidga*
D) *Balx hokimi Amir Husaynga*

**323.** XII asrda qonunshunoslar uchun maxsus "Faqihlar madrasasi" qayerda barpo etilgan?
A) *Toshkentda* B) *Samarqandda*
C) *Buxoroda* D) *Xorazmda*

BAHROM HIKMATOV

**324.** Tarixiy manbalarda “Sohibi jahon” hamda “Sohibi adl” nomlari bilan ulug‘langan vatandoshimizni aniqlang.
A) *Jaloliddin Manguberdi*
B) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
C) *Mirzo Ulug‘bek*
D) *Amir Temur*

**325.** XIX asr o‘rtalarida O‘rta Osiyo xonliklarida sug‘orish ishlarini yuritish va nazorat qilish bilan kimlar shug‘ullangan?
A) *mushrif* B) *muhtasib* C) *miroblar* D) *devonbegi*

**326.** Shermuhammad Munis qalamiga mansub asarni toping.
A) *“Shayboniynoma”* B) *“Shajarayi turk”*
C) *“Firdavs ul-iqbol”* D) *“Umarnoma”*

**327.** 1989-yilda kim O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi sekretari qilib saylandi?
A) *Inomjon Usmonxo‘jayev* B) *Islom Karimov*
C) *Saloy Madaminov* D) *Rafiq Nishonov*

**328.** Kanishka hukmronligi davrida Hindistonning bir qismi qo‘shib olinib, yaqindan aloqalar o‘rnatilgach, Kushon davlati hududiga qaysi din kirib kelgan?
A) *buddaviylik* B) *qam*
C) *zardushtiylik* D) *moniylik*

**329.** O‘zbekiston Respublikasida qaysi lavozim 1992-yilda ta’sis etilgan?
A) *Oliy Majlis Raisi* B) *Vitse-prezident*
C) *Prezident* D) *Bosh vazir*

**330.** Qadimgi davrning qaysi bosqichiga kelib O‘rta Osiyoda jamiyat harbiy demokratiya tamoyillari asosida yashay boshladi?
A) *temir asri* B) *neolit*
C) *bronza davri* D) *eneolit*

**331.** O‘rta Osiyo hududida vujudga kelgan qaysi davlatning poytaxti Ershi shahri bo‘lgan?
A) *Kushon* B) *Davan* C) *Xorazm* D) *Qang‘*

**332.** Massagetlar malikasi To‘maris kimlarga qarshi kurashgan?
A) *arablarga*
B) *eron ahamoniylariga*
C) *yunon-makedonlarga*
D) *mo‘g‘ullarga*

**333.** Quyidagilardan O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manbani toping.
A) *Behistun yozuvlari*
B) *“Avesto”*
C) *Gerodotning “Tarix” asari*
D) *Strabonning “Geografiya”*

**334.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ish faoliyatini boshlagan yilni belgilang.
A) *1997-yil* B) *1993-yil*
C) *1995-yil* D) *1998-yil*

**335.** Quyidagi sulolalardan qaysi biri Buxoro amirligida hukmronlik qilgan?
A) *shayboniylar* B) *qo‘ng‘irotlar*
C) *mang‘itlar* D) *minglar*

**336.** Quyidagilardan Turkiston general gubernatorligining markazi bo‘lgan shaharni toping.
A) *Farg‘ona* B) *Toshkent*
C) *Samarqand* D) *Buxoro*

**337.** Ilk o‘rta asrlarda “qishloq hokimi” ma’nosini bergan atamani belgilang.
A) *eloqxon* B) *shod*
C) *dehqon* D) *yabg‘u*

**338.** Quyidagilardan Xorazm davlatini boshqargan so‘nggi xorazmshohni belgilang.
A) *Takash*
B) *Jaloliddin Manguberdi*
C) *Ma’mun ibn Muhammad*
D) *Otsiz*

**339.** Sherdor madrasasi quyidagi qaysi shaharda bunyod etilgan?
A) *Xiva* B) *Buxoro*
C) *Samarqand* D) *Toshkent*

**340.** O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qaysi yillarga mo‘ljallangan?
A) *2018-2022-yillarga* B) *2019-2024-yillarga*
C) *2017-2021-yillarga* D) *2020-2025-yillarga*

**341.** Nechanchi yilda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan?
A) *1992-yilda* B) *1995-yilda*
C) *1989-yilda* D) *1985-yilda*

**342.** Quyidagilardan podsho Rossiyasining mustamlakachilik jabr-zulmiga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olonni toping.
A) *Dukchi eshon boshchiligidagi qo‘zg‘olon*
B) *Muqanna boshchiligidagi qo‘zg‘oloni*
C) *Mahmud Torobiy qo‘zg‘oloni*
D) *Abruy boshchligidagi qo‘zg‘olon*

**343.** O‘zbekiston Respublikasida ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi organni toping.
A) *Konstitutsiyaviy Sud* B) *Oliy Majlis*
C) *Oliy Sud* D) *Vazirlar Mahkamasi*

**344.** “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari muallifini toping.
A) *Zahiriddin Muhammad Bobur*
B) *Abu Ali ibn Sino*
C) *Abu Rayhon Beruniy*
D) *Mirzo Ulug‘bek*

**345.** Zahiriddin Muhammad Bobur Samarqand taxti uchun kurashda quyidagi qaysi hukmdordan mag‘lubiyatga uchragan?
A) *Muhammad Shayboniyxon* B) *Abulg‘oziyxon*
C) *Ismoil Safaviy* D) *Mirzo Ulug‘bek*

**346.** O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan qachon Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv kanali bo‘yida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochilgan?
A) *2003-yil 2-mart* B) *1999-yil 9-may*
C) *2001-yil 31-avgust* D) *2000-yil 12-may*

**347.** XIX asr o‘rtalarida Xiva xonligida ijaraga yer olgan dehqonlar … deb atalgan.
A) *“yarimchi”* B) *“barzikor”*
C) *“kadivar”* D) *“qo‘shchilar”*

**348.** Buxoro amirligidagi qaysi me’moriy inshoot G‘arb va Sharq an’analari asosida barpo etilgan?
A) *Sitorai Mohi Xosa saroyi*
B) *Mir Arab madrasasi*
C) *Nurullaboy saroyi*
D) *Abdullaxon madrasasi*

BAHROM HIKMATOV

**349.** Quyidagi sulolardan qaysi biri XVII asrda Buxoro xonligida oʻz hukmronligini oʻrnatgan edi?
A) *mangʻitlar* B) *shayboniylar*
C) *qonʻgʻirotlar* D) *ashtarxoniylar*

**350.** XVI asrda qaysi shaharda Koʻkaldosh madrasasi barpo etilgan?
A) *Qoʻqon* B) *Samarqand*
C) *Qarshi* D) *Toshkent*

**351.** Buxoro amirlaridan qaysi birining davrida aholi savdo daromadidan toʻlaydigan boj soligʻidan ozod etilgan?
A) *Haydar* B) *Muhammad Rahim*
C) *Shohmurod* D) *Doniyolbiy otaliq*

**352.** XI-XII asrlarda Movarounnahrda va Xurosonda qaysi turdagi yerlar kengayib mulkchilikning asosiy shakllaridan biriga aylangan?
A) *iqto* B) *vaqf*
C) *suyurgʻol* D) *mulki xos*

**353.** Buxoro qachondan boshlab “Qubbat ul-islom” - “Islom dinining gumbazi” nomi bilan shuhrat topadi?
A) *IX asrdan* B) *X asrdan*
C) *XI asrdan* D) *XII asrdan*

**354.** *“…davlat ishlarining toʻqqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini qilich bilan amalga oshirdim”*, - degan soʻzlar qaysi hukmdor tomonidan aytilganligini aniqlang.
A) *Amir Temur* B) *Mirzo Ulugʻbek*
C) *Husayn Boyqaro* D) *Ismoil Somoniy*

**355.** Mil.avv. VII-VI asrlarda Xorazm, Soʻgʻd va Baqtriya aholisining asosiy mashgʻuloti … boʻlgan.
A) *ovchilik va hunarmandchilik*
B) *chorvachilik va ovchilik*
C) *ovchilik va baliqchilik*
D) *sunʻiy sugʻorishga asoslangan dehqonchilik*

**356.** Fors podshosi Kir II qachon ulkan lashkar bilan massagetlar ustiga yurish qilgan?
A) *Mil.avv. 522-yilda* B) *Mil.avv. 530-yilda*
C) *Mil.avv. 558-yilda* D) *Mil.avv. 519-yilda*

BAHROM HIKMATOV

BAHROM HIKMATOV